



Volume 1, Issue 1(18), 2024

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputys Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, dotsent

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali
Журнал “Физико-технологического образование”
“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2024-03-30

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

<i>№</i>	<i>MUALLIFLAR / AUTHORS/ АВТОРЫ</i>	<i>MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ</i>	<i>SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ</i>
1	<i>Qurbonov A.R. Ismoilov S.</i>	<i>Kuchsiz o‘zaro ta’sirlashuvning Feynman diagrammasi orqali tavsiflanishi</i>	<i>5-10</i>
2	<i>Utambetov B. T., Qalmuratova X. A., Ibraymova S. B.</i>	<i>O‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati</i>	<i>11-17</i>
3	<i>Ibroximov M. A., Axmadjonova S. A.</i>	<i>Raqamli ta’lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatidagi o‘rni</i>	<i>18-24</i>
4	<i>Xolmatov Pardaboy Qorabekovich</i>	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish</i>	<i>25-29</i>
5	<i>Jabborov A. Xolmatov P.Q.</i>	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati va ulardan foydalanish yo‘llari</i>	<i>30-38</i>
6	<i>Oltmishev Toxirjon Turgunovich</i>	<i>Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari</i>	<i>39-42</i>
7	<i>Oltmishev Toxirjon Turgunovich</i>	<i>Uzuzq chiziqlardan to ‘g’ri foydalanish qoidasi</i>	<i>43-48</i>
8	<i>Umarov R.T., Isoqov Sh.T.</i>	<i>Bobur o‘z davrining bunyodkori</i>	<i>49-53</i>
9	<i>Umarov R.T., Nazarov O.</i>	<i>Bobur va boburiylar davrida musavvirlik san’ati</i>	<i>54-58</i>
10	<i>Sharipov A.A., Jaloldinova S.X. Qalmuratova X.A., Islomova N.Sh.</i>	<i>Texnologiya fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish</i>	<i>59-62</i>
11	<i>Po‘latov J.H., Alqorov Q.X.</i>	<i>Texnologik ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda fizikaga uzviy bog‘langan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish asoslari</i>	<i>63-66</i>
12	<i>Eshmatova Sh.T., Alqorov Q.X.</i>	<i>Umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish</i>	<i>67-70</i>
13	<i>Orishev J.B., Jumanova S.H.</i>	<i>Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishga oid ba’zi mulohazalar</i>	<i>71-78</i>
14	<i>Ortiqova O.Sh., Aqbo‘tayeva B.M.</i>	<i>Kostyum tashkil etilishida rang xususiyatlari</i>	<i>79-82</i>

15	<i>Xolmatova M.Q, Alqorov Q.X.</i>	<i>Ta'lim taraqqiyotida interfaol uslublarning ahamiyati</i>	83-88
16	<i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i>	<i>Metagalaktikaning izotroplik va bir jinslilik xususiyatlari</i>	89-91
17	<i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i>	<i>Kengayuvchan koinotning kosmologik modellari</i>	92-94
18	<i>Tursunboyev O.V., Quvondiqov M.K., Boboqulova Z.V.</i>	<i>Yadro fizikasini o‘qitishda “yalpi fikriy hujum” strategiyasi asosida muammoli masalalarni tahlil qilish</i>	95-99
19	<i>Ortiqova O.Sh., Xudoyqulova Z.M.</i>	<i>Kostyum detallarini chizish va modellarning dekorativ bezatilishi</i>	100-105
20	<i>Abdirayimova Dilnoza Azamat qizi</i>	<i>O‘quvchilarni kasb - hunarga yo‘naltirishga oid pedagogik jarayonlar</i>	106-111

TEXNOLOGIYA FANINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O’QITISH ORQALI O’QUVCHILARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Sharipov Abdumalik Ahmadovich¹, Jaloldinova Shahnoza Xasanboevna²

Qalmuratova Xurliman Arislanbaevna³, Islomova Nilufar Shukrullaevna⁴

¹Navoiy davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim kafedrası” o’qituvchisi,

²Andijon davlat pedagogika instituti v/b dotsenti, ³Nukus davlat pedagogika

instituti “Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o’qitish kafedrası” o’qituvchisi,

⁴O’zbekiston Respublikasi IIV Navoiy akademik litseyi katta o’qituvchisi

e-mail:sharipovabdumalik21@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya fanini o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib o’quvchilar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik jihatlari ochib berilib, ushbu usulning texnologik ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: multimedia, dasturiy vositalar, animatsiya, elektron darsliklar, virtual laboratoriya stendlari, 3D animatsiyalar, elektron o’quv trenajorlari

O’quv fanlari bo’yicha elektron o’quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o’qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o’z navbatida, o’quvchilarning mazkur fanlar bo’yicha bilimlarini chuqur o’zlashtirishlarining asosiy omili bo’lib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Texnologiya fanini o’qitishda multimedia vositalaridan foydalanish amaliy va nazariy mashg’ulotlarida samarali ta’sir ko’rsatish bilan birgalikda, mashg’ulotlarda vaqt tejash imkonini beradi. Multimediali dasturiy vositalar asosida o’qitish jarayonida aniq va amaliy fanlarni o’qitish, ma’ruza matnlarini

tahrirlash, o’quvchilar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma’ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o’quvchilar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko’rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo’ladi. Jumladan multimediali dasturiy ta’lim vositadari texnologiya ta’limi praktikumi jarayonida o’quvchilarning amaliy mashg’ulotlarda ishlatiladigan asbob-uskunalar, ulardan xalq xo’jaligida foydalanish, texnik ijodkorlik va xalq hunarmandchiligiga oid chuqur bilim olishida, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, o’quvchilarga malakali duradgorlar, chilangarlar, oshpazlar, tikuvchilar va turli sohadagi hunarmandlarimiz tomonidan bajarilgan o’quv mashg’ulotlari “Master klass” larni namoyish etish orqali ularda turli xil mehnat ko’nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga yo’naltirish ishlarini ham yaxshi yo’lga qo’yish imkoniyatini beradi.

Texnologiya fani amaliy mashg’ulotlar jarayonida multimediali dasturiy vositalari ya’ni elektron darsliklar, elektron amaliy mashg’ulotlar to’plami, elektron o’quv-uslubiy majmualar, virtual laboratoriya stendlari, 3D animatsiyalar, elektron o’quv trenajorlari va bilimlarni nazorat qilishning kompyuterli tizimlaridan foydalanish, ta’lim oluvchilarning motivatsiyasi hamda ta’lim sifati samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. O’quvchilarni ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar davomida o’qitishda turli xil multimedia resurslari bilan materialni taqdim etish uchun keng imkoniyatlar ochadigan axborot texnologiyalaridan foydalaniladi, masalan: chizmalar, vizual modellar, grafik ma’lumotlarning taqdimoti, ular alohida parchalarni tushuntirishda foydalidir.

O’quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish fanni o’rganishga bo’lgan motivatsiyani oshiradi, chunki o’quvchilar uchun materialni taqdim etishning yangi shakli qo’llaniladi, o’rganilayotgan mavzularni idrok etish

samaradorligini oshiradi, bu esa har doim o’rganishni yanada samaraliroq qiladi, o’quv materialini yaxshiroq o’zlashtirish va yaxshiroq yodlashga yordam beradi.

Video proyektor yoki elektron doska ushbu ma’lumotni takrorlash imkonini beradi. O’quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi internet global kompyuter tarmog’idan keng foydalanish bilan bog’liq. Odamlar ko’rgan narsalarining atigi 20 foizini va eshitganlarining 30 foizini eslab qolishadi. Bundan tashqari, ular ko’rgan va eshitgan narsalarining 50 foizini va bir vaqtning o’zida ko’rgan, eshitgan va qiladigan narsalarining 80 foizini eslab qolishadi. Multimedia texnologiyasiga asoslangan kompyuterlashtirilgan ta’lim asosida o’quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari o’quvchilarning kommunikativ, ijodiy va kasbiy bilimlarini, ularning o’z-o’zini tarbiyalash va o’z-o’zini rivojlantirishga bo’lgan ehtiyojlarini rivojlantirishni ta’minlaydigan o’qitishga yondashuvlarni sifat jihatidan o’zgartirishga imkon beradi.

Ta’kidlash joizki, multimedia texnologiyalarini o’quv jarayoniga joriy etish shartlaridan biri multimedia proyektori, kompyuter, ekranli maxsus jihozlangan o’quv xonalarining mavjudligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo’ysinov O.A. “Mehnat ta’limi o’qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo’llash”, O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014 y.

2. Ochilov Shokir Baxtiyorovich, Nematov Bahron, Sharipov Abdumalik Axmadovich, Mavlonova Yulduz Ilhomovna, Usmonova Sohiba Toyir qizi
PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DIAGNOSTIC BASES OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN TECHNOLOGY

EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 2 FEBRUARY 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ

3. Nematov Bahron, Sharipov Abdumalik Ahmadovich, Ochilov Shakir Bakhtiyorovich, Mavlonova Yulduz Ilhomovna POSSIBILITIES OF USING INTERACTIVE TOOLS IN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 6 JUNE 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ

4. Jaloldinova.Sh.X va bosh. Texnologiya ta’limini o’qitishda KEYS-STADIni qo’llash imkoniyatlari. SCIENCE SHINE international scientific journal Issue 7 June 30. 2023

5. Jaloldinova.Sh.X va bosh. Texnologiya fanining uzluksiz ta’lim tizimidagi o’rni va roli. SCIENCE SHINE international scientific journal Issue 7 June 30. 2023

6. Qalmuratova Xurliman Arislanbaevna. (2022). KELAJAK TEKNOLOGIK TA’LIM O’QITUVCHILARINI DISTANLIK O’QITISHNING ILMIY-METODOLOGIY ASOSLARINI TAKMONLASH. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasi, 7,40-42.

7. <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/543> dan olindi